

CRJR
JOURNAL
OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH

ISSN 2181-0974
DOI 10.26739/2181-0974



Journal of
**CARDIORESPIRATORY
RESEARCH**

Special Issue 1.1

2023



ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ВНУТРЕННЕЙ МЕДИЦИНЫ

МАТЕРИАЛЫ

II международной научно-практической
конференции (Самарканд, 7-8 апрель 2023 г.)

Под редакцией
Ж.А. РИЗАЕВА

ТОМ II

Самарканд-2023

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Главный редактор: Э.Н.ТАШКЕНБАЕВА

Учредитель:

Самаркандский государственный
медицинский университет

Tadqiqot.uz

Ежеквартальный
научно-практический
журнал

ISSN: 2181-0974

DOI: 10.26739/2181-0974

N^oSI-1.1
2023

РАНЕЕ ВЫЯВЛЕНИЕ НЕИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ И ИХ ФАКТОРОВ РИСКА В ПРАКТИКЕ СЕМЕЙНОГО ВРАЧА	
Юлдашова Н. Э.	380
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ НОЧНОГО ЭНУРЕЗА У ДЕТЕЙ	
Ярхо Г.А., Ганиев А.Г.	381
BUYRAK FUNKSIONAL ZAHIRASINI ANIQLASH - SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARI ERTA DIAGNOSTIKASIDA PREDIKTOR SIFATIDA	
Axmedova N. Sh, Giyosova N. O.	382
OG'IR COVID-19 SO'NG O'TKIR BUYRAK SHIKASTLANISHLI BEMORLARNI OLIB BORISHDA ULTRATOVUSHLI DOPPLEROGRAFIYANING AHAMIYATI	
Gadaev A. G., Safarova G. A.	383
XORAZM VILOYATIDA 2017-2021 YILLAR DAVOMIDA AVTOMOBILNI MAST HOLDA BOSHQARISHDAN SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISALARI, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI	
Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.	385
XORAZM VILOYATIDA 2017-2021 YILLAR DAVOMIDA AVTOMOBILNI MAST HOLDA BOSHQARISHDAN SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISALARI, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI	
Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M	386
2017-2018 YILLARDA SODIR ETILGAN AVTOAVARIYALAR, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	
Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.	387
2017-2018 YILLARDA SODIR ETILGAN AVTOAVARIYALAR, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	
Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.	388
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI O'QITUVCHILARIDA KO'P UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR TAHLILI	
Mahammadiev B.F., Raximova D.J.	389
XORAZM VILOYATIDA YASHOVCHI TABIIY VA SUN'IY OVQATLANISHDA BO'LGAN BOLALARDAGI ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLAR TAXLILI	
Nurjanov B.B., Yo'ldashev B. S.	390
SIYDIK YO'LLARI INFEKSIYALARINING MIKROBIOLOGIK QO'ZG'ATUVCHILARI	
Fozilov A.V., Alyavi B.A., Hakimov SH.N., Asatova N.B.	391
QORIN BO'SHLIG'I A'ZOLARI OPERASIYALARIDAN KEYINGI OG'RIQ SINDROMI ANALGEZIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	
Sharipov I.L., Pardayev Sh.K., Xolbekov B.K.	392
PODAGRA KASALLIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK QON TOMIR ZARARLANISHLARI VA BO'G'IM SINDROMINING KOMORBID KECHISHI	
Tairov D.R., Berdiyev D.H	393



XORAZM VILOYATIDA YASHOVCHI TABIIY VA SUN'IY OVQATLANISHDA BO'LGAN BOLALARDAGI ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLAR TAXLILI

Nurjanov B.B., Yo'ldashev B. S.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urgench filiali

Urgench, O'zbekistan

Kirish.Yosh bolalarni ovqatlantirish muammosida pediatrlar, dietologlar, siyosatchilar va sog'liqni saqlash tashkilotchilarining fikrlari inobatga olinib har kuni birlamchi tibbiy yordam pediatrlari, sog'liqni saqlash xodimlarining ishonchi va ular tomonidan echilishi muammoni to'g'ri tushunishi vaziyatni tubdan o'zgartirishga yordam beradi.

Yosh bolalar noto'g'ri ovqatlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jixatlari haqiqatan ham juda katta. Statistik ma'lumotlarga karaganda dunyo bo'ylab 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining 10,9 million, ya'ni o'limining 60 foiziga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita noto'g'ri yoki to'yib ovqatlanmaslik sabab bo'ladi.

Tadqiqot maqsad. Bolalarning go'daklik davrida sun'iy va tabiiy oziqlantirish bilan bog'liq xoldagi antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganish, baxolash va qiyosiy tashxislashdan iborat bo'lib, qo'yilgan maqsadga erishish uchun antropometrik va statistik taxlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ilmiy ishga ta'lluqli bir yoshgacha bo'lgan bolalarning barchasi sun'iy va tabiiy oziqlanishda antropometrik o'lchamlari, bo'y uzunligi, vazni, bosh va ko'krak qafasi aylanasi, oyoq balandligi, qo'l va oyoq uzunligidagi o'zgarishlarni aniqlashda tekshiruv o'tkazilgan paytida surunkali yoki o'tkir kasalligi bo'lmagan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalar anamnestik, statistik va antropometrik tekshiruvlardan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan ilmiy ish natijalariga ko'ra, 1 yoshgacha bo'lgan tabiiy ozuqa bilan oziqlangan Urganch shaxrida yashovchi bolalarning antropometrik o'lchamlari o'lchab ko'rilganda, bosh aylanasi o'rtacha 37,84 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 37,48 sm, tana uzunligi o'rtacha 53,39 sm, o'ng oyoq balandligi o'rtacha 22 sm, chap oyoq balandligi o'rtacha 22 sm, o'ng son uzunligi o'rtacha 10 sm, chap son uzunligi o'rtacha 10 sm, 1 yoshgacha bo'lgan sun'iy ozuqa bilan oziqlangan. Shuningdek, 1 yoshgacha bo'lgan tabiiy ozuqa bilan oziqlangan Xazorasp tumanida yashovchi bolalarning antropometrik o'lchamlari o'lchab ko'rilganda, bosh aylanasi o'rtacha 37,84 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 39,48 sm, tana uzunligi o'rtacha 53,39 sm, o'ng oyoq balandligi o'rtacha 22 sm, chap oyoq balandligi o'rtacha 22 sm, o'ng son uzunligi o'rtacha 9 sm, chap son uzunligi o'rtacha 9 sm, 1 yoshgacha bo'lgan sun'iy ozuqa bilan oziqlangan Xazorasp tumanida yashovchi bolalarning antropometrik o'lchamlari o'lchab ko'rilganda, bosh aylanasi o'rtacha 40,4 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 41 sm, tana uzunligi o'rtacha 53,6 sm, o'ng oyoq balandligi o'rtacha 20 sm, chap oyoq balandligi o'rtacha 20 sm, o'ng son uzunligi o'rtacha 8 sm, chap son uzunligi o'rtacha 8 smni tashkil qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari o'rganilganda, Urganch shaxrida yashovchi 1 yoshgacha bo'lgan bolalardan eng yuqori ko'rsatkich 11 oylikda bolalar kuzatilgan bo'lsa, Xazorasp tumanida yashovchi 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda 1 yoshdagi bolalarda yuqori ko'rsatkich kuzatildi.

Shuningdek, tekshiruvga jalb qilingan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari o'lchab ko'rilganda, asosan sun'iy ozuqa bilan oziqlangan bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari tabiiy ozuqlangan bolalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar aniqlangan.